

“FIRDAVSU-L- IQBOL” ASARIDA O‘G‘UZXON TIMSOLI VA UNING XALQ EPIK AN‘ANALARIDAGI ILDIZLARI

Botirova Alfiya Zikir qizi,

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti o‘qituvchisi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18931990>

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘g‘uzxon obrazining tasviri yozma va og‘zaki manbalar asosida qiyosiy tahlil qilinadi. Xususan, Firdavsu-l-iqbol asarida keltirilgan O‘g‘uzxon haqidagi ma‘lumotlar xalq og‘zaki ijodidagi qahramonlik eposlari bilan solishtirib o‘rganiladi. Tadqiqot jarayonida O‘g‘uzxon timsolining tarixiy shaxs, afsonaviy qahramon va ideal hukmdor sifatidagi talqinlari ochib beriladi. Shuningdek, yozma manbada voqealarning tarixiylashtirilishi hamda og‘zaki an‘analarda epik bo‘rttirishlar orqali qahramonlik g‘oyasining shakllanishi yoritiladi. Maqola turkiy xalqlar epik tafakkuri va tarixiy xotirasini o‘rganishda muhim ilmiy xulosalar chiqarishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: O‘g‘uzxon, Firdavs ul iqbol, qahramonlik eposi, xalq og‘zaki ijodi, turkiy epik an‘ana, tarixiy-afsonaviy obraz, ideal hukmdor, epik tafakkur, qiyosiy tahlil, yozma va og‘zaki manbalar.

Аннотация. В данной статье представлен сравнительный анализ образа Огуз-хана на основе письменных и устных источников. В частности, образ Огуз-хана, описанный в произведении «Фирдавс ул-Икбол», рассматривается в сопоставлении с героическими эпосами тюркского устного фольклора. В исследовании раскрываются интерпретации Огуз-хана как исторической личности, легендарного героя и идеального правителя. Также освещается процесс историзации в письменных источниках и роль эпического преувеличения в устных традициях в формировании героического идеала. Статья способствует более глубокому пониманию тюркского эпического сознания и исторической памяти.

Ключевые слова: Огуз-хан, Фирдавс ул-Икбол, героический эпос, устный фольклор, тюркская эпическая традиция, историко-легендарный образ, идеальный правитель, эпическое сознание, сравнительный анализ, письменные и устные источники.

Abstract. This article presents a comparative analysis of the depiction of Oghuz Khan based on written and oral sources. In particular, the image of Oghuz Khan as described in Firdavs ul Iqbol is examined in comparison with heroic epics of Turkic oral folklore. The study reveals the interpretations of Oghuz Khan as a historical figure, a legendary hero, and an ideal ruler. It also highlights the process of historicization in written sources and the role of epic exaggeration in oral traditions in shaping the heroic ideal. The article contributes to the understanding of Turkic epic consciousness and historical memory.

Keywords: Oghuz Khan, Firdavs ul Iqbol, heroic epic, oral folklore, Turkic epic tradition, historical-legendary image, ideal ruler, epic consciousness, comparative analysis, written and oral sources.

Kirish. O‘zbek mumtoz tarixnavisligining yirik namunalaridan biri bo‘lgan Firdavsu-l-Iqbol asari Xorazm tarixini yoritish bilan birga, turkiy sulolalarning nasab va ma‘naviy ildizlarini ham bayon etadi. Shermuhammad Munis va Ogahining “Firdavsu-l-iqbol” asari qadim zamonlardan boshlab, to 1825-yilgacha Xorazmda bo‘lgan tarixiy voqealarni o‘z ichiga olgan bo‘lsa ham, asarda hikoyatlar, poetik vositalardan, lirik janrlardan keng va o‘rinli foydalangan. Asarda O‘g‘uzxon timsoli muhim o‘rin tutib, u nafaqat tarixiy shaxs, balki turkiy xalqlarning umumiy ajdodi, davlatlilik va qudrat ramzi sifatida tasvirlanadi.

Metodologiya. Maqolada qiyosiy-tahliliy metod asosiy usul sifatida qo'llaniladi. O'g'uzxon timsolining ildizlari turkiy xalqlarning qadimiy og'zaki ijod namunalari bilan chambarchas bog'liq. Ayniqsa, "O'g'uznoma" turkumidagi rivoyatlar bu obrazning asosiy manbai hisoblanadi. Shuningdek, "O'g'uzxon haqidagi rivoyatlar Rashididdin Fazlulloh Hamadoniyning "Jome' ut-tavorix", Mirzo Ulug'bekning "To'rt ulus tarixi" Hofiz Tanish Buxoriyning "Abdullanoma", Abdulg'ozil Bahodirxonning "Shajarayi turk" kabi tarixiy asarlarda O'g'uz xoqon afsonasi va O'g'uznoma dostoni o'rtasida bir qancha umumiy va farqli jihatlar mavjud. Yuqoridagi keltirilgan asarlarning barchasida O'g'uz hoqon musulmon sifatida talqin qilinadi. Rashididdin ham, Mirzo Ulug'bek ham, Abdulg'ozil ham turkiy qavmlarning O'g'uzxondan tarqalganini aytib, O'g'uz hoqon shajarasini Nuh payg'ambarga borib taqalishini ko'rsatadilar" [2.121] Bu asarlarda O'g'uzxon nafaqat epik qahramon, balki turkiy xalqlarning tarixiy ajdodi sifatida ko'rsatiladi. Qadimgi bitiklardan biri bo'lgan "O'g'uznoma"ning barcha O'g'uznomalar ichida tutgan o'rnini alohida. Turkshunos olim V.V.Radlovning "Qadimgi turki lug'at" da O'g'uz qog'on haqida afsona quyidagilar yozilgan: XIII yuz yillikka oid O'g'uz qog'on haqida afsona mazmunan epik bo'lib, XV asrga daxil yagona nusxasi uyg'ur yozuvida bitilgan va har birida 9 qator yozuv bo'lgan 42 sahifadan iboratdir. Bu nusxa Parijdagi Milliy kutubxonada saqlanadi" [1.].

Natijalar. Maqolada tahlillar shuni ko'rsatadiki, "O'g'uznoma" dostonida O'g'uzxonning tug'ilishi va qiyofasi mifologik xarakterda tasvirlanib, Oy xoqon obrazi orqali kosmik va ilohiy mazmun mujassamlashtirilgan. O'g'uzning tashqi qiyofasiga oid tasvirlar epik bo'rttirishlar orqali beriladi. "O'g'uznoma" dostonida O'g'uzning tug'ilishi haqida shunday ta'rif berilgan: *"Bo'lsin, dedilar. Uning nishoni ushbu dir: Toki bundan keyin sevinch topgaylar. Yana kunlardan bir kun Oy qog'onning ko'zi yorib ko'paydi (bo'lindi). Erkak o'g'il tug'dirdi. O'sha o'g'il yuzining rangi ko'k edi. Og'zi otash kabi qizil edi. Ko'zlari qo'yko'z, Sochlari, qoshlari qop-qora edi. Nozik farishtalardan ham ko'hliroq edi"*. [1.13] Mazkur parchada O'g'uzning tug'ilishi va uni dunyoga keltirgan Oy xoqon obrazida mifologik mazmun mujassamlashtirilgan. "Firdavsul-iqbol" asarida esa O'g'uzxonning tug'ilishi va go'zalligi yanada poetik va badiiy shaklda ifodalanadi. She'riy parchalar, mubolag'a va iyhom san'atlari yordamida uning yuksak martabaga loyiq shaxs ekanligi ta'kidlanadi.

O'g'uzning tug'ilishi quyidagicha: *"Qoraxonning ulug' xotunidan bir o'g'ul mutavallid bo'ldikim, bayt:*

Yuzi nuri andoq daraxshon edi,

Ki xurshid ollida hayron edi.

Uch kechavu kunduz onasining sutin emmadi. Har oqshom ul qurratul-ayn onasining tushida der erdikim: "Ey ona, to musulmonliq yo'lig'a qadam urmasang va Haqq jalla va a'lokim, sani va mani yaratg'on uldur, aning vahdatig'a imon kelturmasang, o'lmakka roziman, emchakingni og'zinga olmon." Onasi o'g'lidan kecha olmay, qo'rqunchdin

pinhon musulmon bo'lib, o'g'lig'a sut berib, parvarish qildi. Chun qurratul-ayn bir yoshig'a yetdi, malohat va xubluqda mushorilayh bo'ldi. Nazm:

*Jamolig'a ko'z solsa har didavar,
Beganmay quyosh sori qilmas nazar.
Tili kim, yangi nuktag'a mayl etib,
Eshitgan havosida o'z din ketib.
O'yunga qachonkim qilur iztirob,
Berur Chin g'izolig'a yuz gushtob" [2.55.]*

Ko'rinib turibdiki, ushbu asarlarda O'g'uzning tug'ilishi va ta'rifi bir-biriga mutanosib. "O'g'uznoma" dostonida O'g'uzning ko'zlari, sochlari tasvirini ta'riflar ekan "Nozik farishtalardan ham ko'hliroq edi" deya ta'riflanadi. "Firdavsu-l-iqbol" asarida O'g'uzxonning tug'ilishi esa yanada badiiy, she'riy parchalar orqali beriladi. Uning yuzi shu qadar yorqin ediki, hatto quyosh ham uning go'zalligidan ta'sirlanib hayratda qoladi, yuziga (jamoliga) nazar solgan kishi quyoshga ham ko'z tashlashni lozim topmaydi ya'ni O'g'uzning go'zalligi quyoshni ham "ortiqcha" qilib qo'yadi. She'rning so'nggi misrasida "Chin g'izolig'a yuz gushtob" deya ta'riflaydi. Munis ushbu bayt orqali iyhom badiiy san'atidan ham mahorat bilan foydalangan, chin so'zi orqali haqiqiy go'zallik hamda Chin mamlakatidagi go'zallarga ishora qilingan. Hatto bu go'zallikni quyidagi she'riy misra orqali yanada badiiy aks ettirgan.

*Haram sori bir kun Qoraxon kirib,
O'g'ul yotgon uy ichra pinhon kirib.
Beshik ichra o'g'lini ko'rdi-ki oy,
Hamono-ki tutmish falak uzra joy.[56]*

Beshikda yotgan farzandini oyga qiyos qiladi osmon gumbazidan joy olgandek ko'radiki bu orqali shoir uning taqdir tomonidan yuksak martabaga loyiq qilib yaratilgan zot sifatida baho beriladi.

"Firdavsu-l-iqbol" asari va "O'g'uznoma" dostonida O'g'uz obrazi buyuk hukmdor, qabila va urug'larning asoschisi deb talqin qilinadi. U talqin O'g'uz hoqonning farzandlari ismlarida ham ramziy tarzda ifodalanadi. Ularning ismlari tabiat va koinot unsurlari bilan bog'liq bo'lib, hukmdorning olam miqyosidagi qudratini anglatadi: Kun, Oy, Yulduz, Ko'k, Tog', Tengiz. Bu ismlar O'g'uzni nafaqat siyosiy yetakchi, balki kosmik tartib va ilohiy qudrat bilan bog'langan hukmdor sifatida ko'rsatadi. Shu orqali O'g'uz hoqonning avlodlari butun olamni boshqarishga haqli, degan g'oya ilgari suriladi. Shuningdek, o'g'illarlariga taxtni topshirish marosimi ham har ikkala asarda muhim siyosiy-ma'naviy ramz sifatida tasvirlanadi. Bu marosim O'g'uz hoqonning hokimiyatni tasodifiy emas, aniq tartib va qonun asosida davom ettirishga intilganini ko'rsatadi. "O'g'uznoma"da bu marosim quyidagicha tasvirlanadi. "Qog'on ulug' o'rdada o'ng tomoniga qirq quloch yog'ochni o'rnatib uchiga bir oltin tovuq yasatti, quyiga bir oq qo'yni bog'latdi. So'l tomoniga ham qirq quloch yog'ochni o'rnatib uchiga bir kumush

tovuq yasatti, quyisiga esa bir qora qo‘yni bog‘latdi. O‘ng yoqda buzuqlar o‘tirdi. So‘l yoqda ucho‘qlar o‘tirdi. Qirq kun, qirq kecha oshadilar”[22]

“Firdavsu-l-iqbol” asarida esa to‘y marosimi ham nasriy ham she‘riy usulda poetik usulda bayon qilingan. *“Chun O‘g‘uzxon aqolimi sab‘ani tahti tasarrufig‘a kirguziub, mavrusiy viloyatig‘a keldi, ulug‘ to‘y va azim jasht tartib berib, bir xirgoh tikturdikim, yag‘ochlari oltundin erdi. Javohiri garonmoya bila tarsi qililg‘on.*

Bir uy tikti oltundin ul shahriyor

Kim, ul uy falak uyidin qildi or

Ul to‘yda to‘qquz yuz yilqi va to‘qquz ming qo‘y o‘lturdi. Ba‘zi to‘qson ming qo‘y debdur. Qimizi sharob va g‘ayri zalika muhayyo ba omoda erdi...”[60] deya bir masnaviy keltiradi. Unda to‘y dasturxonini *Muhayyo shishalarda jon sharobi, Nechukkim, shiralarda bat kabobi* misralari orqali nihoyatda to‘kin va hashamatli tarzda tasvirlanadi. Shuningdek, marosimning badiiy ta‘sirchanligi sozandalarning kuy-qo‘shiqlari vositasida yanada kuchaytiriladi. *G‘ino ahli tarannum aylabon soz, Qilib Iso kibi jon bermak og‘oz* misralari musiqaning majlisga ruh, jon va hayot bag‘ishlovchi kuch sifatida mubolag‘ali tarzda yoritilganini ko‘rsatadi. Katta o‘g‘illariga “Buzuq” kichik o‘g‘illariga “uch o‘q” deb laqab qo‘yilishida ham shunday voqea keltirilgan. *“Bu laqablar sababi ulkim, O‘g‘uzxon Shom diyoring‘a olg‘onda, shahzodalar shikorg‘a borib erdilar. Shom navohisidin uch ulug‘ shahzoda bir oltun yoy va uch kichik shahzoda uch zarrin o‘q topib, O‘g‘uzxon oldig‘a kelturdilar. Xon yoyni yoy topg‘onlarg‘a, o‘qlarni o‘q topg‘onlarg‘a berdi. Uch ulug‘ shahzoda yoyni buzub, taqsim qildilar. Xon alarga “buzuq” laqab qo‘ydi. Uch kichik shahzoda uch o‘qni olishdilar. Xon alarni “uch o‘q” dedi. Yana vasiyat qildikim, yoy podshoh manzilasidadur va o‘q elchi muqobilasidur. Aning uchunkim, yoy o‘qni qayon yuborsa borur”* [61] va bu voqea “O‘g‘uznoma” dostonida ham shu voqea berilgan bo‘lib, Buzuqlar — O‘g‘uz xoqonning yoyga ega bo‘lgan uch o‘g‘li — Kun, Oy va Yulduzdan tarqalgan qabilalardir. Ushbu qabilalar “buzuq” nomi va laqabini olgan. “Buzuq” so‘zi “bo‘laklarga ajratmoq” degan ma‘noni anglatadi. O‘g‘uz xoqon ularning laqabini shunday belgilaganki, zarur paytda yoyni bo‘lish yoki sindirish imkoniyati bo‘lsin. Shuningdek, u lashkarning o‘ng qanotini aynan shu uch o‘g‘liga va ularning avlodlariga topshirishni buyurgan. Uchuqlar esa o‘qlarni olgan uch o‘g‘ildan kelib chiqqan avlod hisoblanadi. “Uchuq” so‘zi “uch o‘q” degan ma‘noni bildiradi. O‘g‘uz xoqon shunday degan: bundan buyon ularning nasli berilgan laqab bilan bog‘liq bo‘lsin va qaysi qanotga mansubligi hammaga ayon bo‘lib tursin. O‘ng qo‘l yo‘li yuqori hisoblanganligi sababli, yoyni ularga topshirdim. Ular shoh darajasiga tengdir. Elchi darajasidagi o‘qlarni esa chap qanotga mansub bo‘lganlarga berdim.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, O‘g‘uzxon timsoli tarixiy shaxs va xalq eposidagi qahramonlik idealining uyg‘unlashgan obrazidir. “Firdavsu-l-Iqbol” asarida Ogahiy O‘g‘uzxonni tasvirlashda o‘zbek xalq og‘zaki ijodidagi qahramonlik eposlaridagi obrazlarga asoslanadi. Ushbu timsol orqali: O‘g‘uzxonning shon-sharafi, kurashlari va

strategik donoligi xalq eposlaridagi jasur va oqil sarkardalar bilan uyg'unlashadi. U o'z xalqini himoya qiluvchi, adolatni ta'minlovchi shaxs sifatida beriladi, bu esa eposiy an'anadagi ijtimoiy-madaniy qadriyatlarni aks ettiradi. Asardagi voqealar va O'g'uzxonning xarakteri tarixiy manbalar bilan birga, xalq dostonlari va rivoyatlaridan olingan motivlarga asoslanadi. Shu tariqa Munis asari tarixiy fakt va folklor an'analarning uyg'unlashgan mahsuli sifatida namoyon bo'ladi. Shunday qilib, "Firdavsul-Iqbol"da O'g'uzxon timsoli xalq epik an'analari bilan chuqur bog'liq bo'lgan ideal qahramon obrazini yaratadi. Bu timsol orqali asar nafaqat tarixiy voqealarni, balki xalqning qadriyatlarini, dunyoqarashini va estetik didini ham aks ettiradi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. Baxtiyor Isabek (tayyorlovchi). O'g'uznoma. — Toshkent: O'zbekiston nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007.
2. Nasimxon Rahmonov O'zbek adabiyoti tarixi (Eng qadimgi davrlardan XV asrning birinchi yarmigacha). O'quv qo'llanma.-T.: "Sano-standart" nashriyoti, 2017.-556 b
3. Munis va Ogahiy. Firdavs ul-iqbol.-.: "Yangi asr avlodi", 2010

